

**TARBIYA DARSLARIDA AXLOQIY QADRIYATLARNI GAMIFIKATSIYA
ASOSIDA SINGDIRISH**

Bo'riyeva Go'zalina

*Termiz davlat pedagogika instituti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim)" yo'nalishi 1-kurs magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'qituvchilariga axloqiy qadriyatlarni Gamifikatsiya elementlari asosida singdirish orqali ularda halollik, do'stlik, hamkorlik, mehr-oqibat kabi axloqiy fazilatlarni rivojlantirish.

Kalit so'zlar: tarbiya, axloqiy qadriyatlar, gamifikatsiya, o'yin texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim.

Abstract: In this article, the development of moral qualities such as honesty, friendship, cooperation, kindness, by instilling moral values in primary school teachers based on Gamification elements in education classes.

Keywords: education, moral values, gamification, game technologies, primary education.

Hozirgi shiddatli integratsiya va axborotlashuv sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy olamini shakllantirish pedagogika sohasidagi eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Bugungi kun bolalari raqamli muhitda voyaga yetayotganini inobatga olsak, tarbiya darslarida faqat an'anaviy ma'ruzalar bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy texnologik yondashuvlar, xususan, gamifikatsiya usullaridan foydalanish kutilgan samarani beradi. Gamifikatsiya o'quv faoliyatiga o'yin elementlarini singdirish orqali motivatsiya, qiziqish va faollikni oshiradi, axloqiy qaror qabul qilish malakalarini mustahkamlaydi. Shu o'rinda tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud ahloq" asarida shunday deydi: Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat yo falokat masalasidir[1]. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi hususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Loyiha doirasida tarbiya jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki bolaning tashqi muhit bilan o'zaro munosabatidagi salbiy holatlarni korreksiya qilish va unda mustaqil fikrlash ko'nikmasini uyg'otishdir. Bunda asosiy e'tibor o'quvchining faqat aqliy rivojlanishiga emas, balki uning ichki kechinmalari va emotsional dunyosini boyitishga qaratiladi. Jamiyat talablariga mos keladigan ijobiy xulq-atvorni shakllantirish esa muntazam olib boriladigan pedagogik ta'sir natijasida amalga oshadi. O'quvchining jamiyatdagi o'rnini va uning insoniy qiyofasini belgilovchi bosh mezon — bu axloqiy qadriyatlardir. Ushbu tamoyillar ta'limning ilk bosqichlaridanoq bolaning dunyoqarashiga singdirilishi strategik ahamiyatga ega. Ayniqsa, shaxsning poydevori qo'yiladigan kichik maktab yoshida ma'naviy-axloqiy jihatlariga ustuvorlik berish talab etiladi. Chunki aynan

shu davrda olingan tarbiya bolaning kelajakda komil inson bo'lib yetishishida poydevor vazifasini o'taydi. Axloqiy qadriyatlar – bu insonga xos fazilatlar bo'lib, bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantirilishi lozim bo'lgan asosiy axloqiy qadriyatlar:

Halollik

Mehr-oqibat

Do'stlik va hamkorlik

Mas'uliyat

Vatanga sadoqat

Muloyimlik

Adolat

O'zini tutish madaniyati

Gamifikatsiya aynan ushbu fazilatlarni amaliy faoliyat orqali shakllantirishga xizmat qiladi. Gamifikatsiya – o'yin elementlarini o'yin bo'lmagan jarayonlarga qo'llash bo'lib, u motivatsiyani oshiradi, shaxsning faolligini kuchaytiradi, axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Gamifikatsiya pedagogik jarayonda quyidagi natijalarni beradi:

Motivatsiya oshadi

Axloqiy qaror qabul qilish osonlashadi

Faollik oshadi

Hamkorlik ko'nikmasi shakllanadi

Emosional intellekt rivojlanadi

Intizom va mas'uliyat kuchayadi

Gamifikatsiya asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish metodlarining baizlarini ko'rib o'tamiz:

1. "Badge (belgi) orqali rag'batlantirish"

Mazmuni: O'quvchilarga axloqiy fazilatlar nomi bilan bog'liq belgilar (badge) beriladi. Har bir badge ma'lum bir yaxshi xulqni anglatadi.

Axloqiy qadriyatlar:

- Halollik
- Mehribonlik
- Do'stlik
- Mas'uliyat
- Adolat

Amalda qo'llanishi:

1. O'qituvchi dars boshida belgilangan badge tizimini tushuntiradi.
2. O'quvchi dars davomida yaxshi xatti-harakat qilsa, badge oladi.
3. Haftaning oxirida badge bo'yicha Axloqiy reyting tuziladi.

Misol: O'quvchi qoidaga amal qilib, navbat kutgan bo'lsa → "Adolat belgisi".

Yiqilgan do'stiga yordam bersa → "Mehribonlik belgisi".

Uy vazifasini o'z vaqtida bajarsa → "Mas'uliyat belgisi".

Natija: Bola badge olish uchun axloqiy xulqni ongli ravishda takrorlay boshlaydi.

2. "Qahramon kartalari"

Mazmuni: Har bir o'quvchi o'zining virtual yoki qog'ozdagi Axloqiy qahramoniga ega bo'ladi. Qahramon fazilatlar bilan kuchayib boradi.

Amalda qo'llanishi:

1. O'quvchilarga kartochkalar tarqatiladi.

2. Har bir fazilatga "kuch ballari" belgilanadi:

Mehribonlik → +3

Halollik → +5

Mas'uliyat → +4

Do'stlik → +2

3. O'quvchi dars jarayonida fazilat ko'rsatsa, kartochkasiga ball qo'shiladi.

4. Oy oxirida eng ko'p ball olgan qahramon "Oy Qahramoni" bo'ladi.

Misol: Farhod navbatda birovni o'tkazib yubordi → "Mehribonlik: +3 ball"

Dilnoza partasini tozaladi → "Mas'uliyat: +4 ball"

Natija: Bola o'zini qahramon kabi tutishga harakat qiladi.

3. "Yaxshi ishlar banki"

Mazmuni: Sinfda "Yaxshi ishlar banki" qutisi qo'yiladi. O'quvchilar qilgan yaxshi ishlarini yozib tashlaydi.

Amalda qo'llanishi:

1. Har o'quvchi qog'ozga yaxshi ishini yozadi:

"Bugun ukamga yordam berdim."

"Do'stimni yupatdim."

2. Haftaning oxirida quti ochiladi.

3. Eng ko'p yaxshi ish qilgan o'quvchi "Mehribonlik yulduzi" bilan taqdirlanadi.

Natija: Bola yaxshi ishni odatga aylantiradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki gamifikatsiya texnologiyalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, tarbiya jarayonini qiziqarli, mazmunli va raqamli avlodga moslashtiradi. Bunday texnologiyalar o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirish, ularni halollik, mehr-shafqat va mas'uliyat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov A. Axloqiy tarbiya va milliy an'analar: Pedagogik tahlil. Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

2. Qodirov B. Axloqiy tarbiya metodikasi. – Toshkent: 2021.

3.R .A .Mavlonova, N .H .Rahmonqulova, K .O .Matnazarova, M .K .Shirinov , S .Hafizov. Umumiy pedagogika.- Toshkent: Fan texnologiya,2018